
TURKIYA KOMPANIYASI FARG'ONA VILOYATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARINI TADBIQ ETGAN HOLDA CHIQINDINI QAYTA ISHLASH BO'YICHA LOYIHA TAKLIFI ISHLAB CHIQISHDA YAKUNIY BOSQICHGA KELDI

**Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Turkiyaning Klintek İnşaatt va Enerji kompaniyasi
rahbarlaridan iborat delegatsiyani qabul qildi.**

Muloqot chog'ida Klintek İnşaatt ve Enerji tomonidan ishlab chiqilayotgan Farg'ona viloyatida ekologik toza texnologiyalarini tadbiq etgan holda chiqindini qayta ishlash bo'yicha tashkil etish rejalashtirilayotgan korxonaning loyiha taklifi holati muhokama qilindi.

Viloyat hokimi boshchiligidagi Farg'ona viloyati delegatsiyasining joriy yil fevral oyi Turkiyaga tashrifi chog'ida Klintek İnşaatt ve Enerji kompaniyasi bilan ilk muzokaralar o'tkazilgandi. Mart oyi oxirida esa ushbu kompaniya rahbarlari viloyatimizga ilk bor tashrif buyurib, loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini joyida o'rganishgan hamda dastlabki takliflarini taqdim etishgandi.

Qiymati 170 million yevro bo'lgan korxona ishga tushirilsa, viloyatimizda kunlik 2,5 ming tonnagacha bo'lgan chiqindini qayta ishlash hisobiga yillik 50 Mvt elektr energiyasi va 25 ming tonna o'g'it ishlab chiqariladi, chiqindilarning katta qismi yana foydalaniladigan buyumlarga aylantiriladi, 600 dan ziyod ish o'rni yaratiladi.

Klintek İnşaatt ve Enerji kompaniyasi rahbarlari Mevlyut Aldirmaz va Selim Balikchi kecha Toshkentda Respublika energetika va ekologiya sohasi mas'ullari bilan uchrashib, ushbu loyiha bo'yicha texnik shartlarni qayta ko'rib chiqishdi. Bugungi muloqotda viloyat hokimiga bu haqda ma'lumot bergen turkiyalik ishbilarmonlar, Toshkentda muhokama qilingan jihatlarni ham hisobga olgan holda yakuniy loyiha taklifini kelgusi haftada taqdim etishlarini bildirishdi.

Ushbu loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirish bo'yicha hamkorlik ishlari davom ettiriladi.



Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#), [Telegram](#), [Facebook](#), [YouTube](#), [Instagram](#)

2022-11-09 22:05:41